

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAXAMMADOV BOBIR ISAN O'G'LI

**ANDROID OPERATSION TIZIMI MOBIL ILOVALARI
TERMINLARINING O'ZBEK, RUS, INGLIZ TILLARIDA BERILISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philolohical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Maxammadov Bobir Isan o'g'li

Android operatsion tizimi mobil ilovalari terminlarining o'zbek, rus, ingliz
tillarida berilishi 5

Makhammadov Bobir Isan ugli

Android operating system mobile application terms in Uzbek, Russian, and
English languages 25

Махаммадов Бобир Исан угли

Термины мобильных приложений операционной системы android на
узбекском, русском и английском языках 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ 51

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAXAMMADOV BOBIR ISAN O'G'LI

**ANDROID OPERATIONS TIZIMI MOBIL ILOVALARI
TERMINLARINING O'ZBEK, RUS, INGLIZ TILLARIDA BERILISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PHD/Fil2268 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instituti veb-sahifasining www.adchti.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shaxabidinova Shoxida Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Ergasheva Guli Ismoil qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli ilmiy kengashining 2023-yil "18" 07 soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 5-uy, Tel.: (99874) 223-42-76; faks: (99874) 223-42-76).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (9-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 5-uy, Tel.: (99874) 223-42-76; faks: (99871) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "11" 07 kuni tarqatildi.
(2023-yil "___" ___ dagi № ___ raqamli reyestr bayonnomasi).



D.A. Rustamov
Ilmiy darajada beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d, professor

A.Dj. Ataboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, f.f.f.d (PhD)

M.I. Umarxodjayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida android operatsion tizimida mobil ilovalarning yaratilishi jadal sur'atlarda kechmoqda. Mazkur jarayon mobil ilova terminologiyasiga oid yangi tushunchalarning dunyo tillariga kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat, o'z navbatida, mobil ilovalarda ishlatilgan o'zbek, rus, ingliz tilidagi terminlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish, ya'ni, semantik va strukturaviy jihatdan tahlil qilish hamda leksikografik xususiyatlarini aniqlash, tarjima uslublarini takomillashtirish, uch tilli lug'atlarni yaratish kabi muhim topshiriqlarni kun tartibiga qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ko'plab rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatildi. Bugungi kunda ushbu aloqalarning rivojlanishi davom etayotgani asnosida ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi hamkorlik natijasida jamiyat hayotiga mobil ilovalar keng moslashtirib borilmoqda va shuning barobarida ayni sohaga taalluqli ko'plab yangi tushuncha hamda terminlar kirib keldi. So'nggi yillarda bunday ilovalarning ko'payib ketayotgani natijasida mazkur sohaning zamonaviy leksikasini tadqiq qilish va terminologik apparatini tartibga solishga yo'naltirilgan muayyan ilmiy izlanishlar amalga oshirilishiga, ayni soha terminlari va tushunchalarining standartlari ishlab chiqilishiga, izohli lug'atlar yaratilishiga ulgurilmay qolmoqda.

Jahon tilshunosligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminlarini tartibga olish ishlari bir til terminlari doirasida ham, bir necha til terminlari doirasida ham amalga oshirilgan, shu bilan bir qatorda, ayni soha terminlari muayyan darajada tartibga solinib, ko'proq shu sohaga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, lekin mobil ilovalarning terminologiyasiga qiziqish bildirilmagan. Bunga esa ingliz leksik-semantikasida terminlarning faqatgina ma'nosi o'zgarishi orqali ilovalarda qo'llanilgani sabab bo'lgan.

Milliy tilshunoslikda ham android operatsion tizimi mobil ilovalari terminlarining lingvistik xususiyatlari (leksikografik, semantik va tarjimaviy) haligacha aniqlanmagan va soha terminlarini tartibga solish mezonlari ishlab chiqilmagan. Shunga ko'ra, mobil ilova terminlarining mavzuviy guruhlarini aniqlash, leksik-semantik xususiyatlarini asoslash, terminlarning strukturaviy modellarini yoritish, o'zlashma va baynalminal terminlarning milliy tillarda barqarorlashuv jarayonlarini tadqiq qilish, tarjima qilish uslublarini takomillashtirish, terminlardagi sinonimik, antonimik va variantlilik holatlarini tartibga solish hamda maqbullarini qo'llash yuzasidan takliflar berish, leksikografik izohlarini ko'paytirish, tarjima lug'atlarini tuzish kabi masalalarning hal etilishi sifatli mobil ilovalar yaratilishi bilan birga, foydalanuvchilarga muayyan darajada yengillik yaratilishiga olib keladi.

Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga doir 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-4699-son qarori¹ hamda 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 6079 – son farmoni², shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ – 5117 – son qarorida³ hamda ushbu sohalarga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” va III. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish”⁴ ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiya va leksikografiya, xususan, terminografiya bo‘yicha filologik hamda sohaviy lug‘atlarning ahamiyati, ularni tuzish, terminologik birliklarning soha bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatish, shuningdek, ularni umumiy filologik yoki maxsus lug‘atlarda keltirish, birliklarni izohlash bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, qator yutuqlar qo‘lga kiritilgan⁵. Milliy tilshunosligimizda ham lug‘atchilikka e‘tibor tilshunoslikning eng muhim tarmog‘i sifatida Mahmud Qoshg‘ariy davridanoq boshlangan.

O‘zbek tilshunosligida terminologiyaning leksikografik xususiyatlariga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar olib borilgan va lug‘at hamda qo‘llanmalar chop etilgan. O‘zbek tilida terminologiya masalalari M.E.Umarxo‘jayev, X.Dadaboyev, I.X.Sadikova, S.X.Nurmatova, O.Tursunova, P.P.Nishonov, O.S.Ahmedov, H.V.Mirzahmedova, S.Muhamedova, S.T.Mustafayevaning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan⁶. Sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bilan D.X.Kadimbekova⁷,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori // <https://lex.uz/docs/-4800657>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» // <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» <https://lex.uz/docs/-5426736>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi - O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan va innovatsiyalar sohasining qonunchilik va meyoriy-huquqiy asoslari bo‘yicha dayjest – T: 2020. – B.14

⁵ Горностаев Г.Н., Забинкова Н.Н., Каден Н.Н. Латинские названия животных и растений. – М.: Изд-во МГУ, 1974. – С.146; Felber H. International standardization of terminology: theoretical and methodological aspects. – Paris: Vienna, 1977. – P. 264; Даниленко В. П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С.200; Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии // История отечественного терминоведения: классики терминоведения. Т. 1. – М., 1994; Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: Избр. тр. – М., 1977 – С.310; Фролова О.П. Китайская терминология как лексическая подсистема / Сб. тезисов II конф. по китайскому языкознанию. – М., 1984. – С.77-79; Шевченко Г. И. Дверь в латинский язык и биологическую терминологию. – Минск, 1999. – С.115; Герд А.С. Основы научнотехнической лексикографии: (как работать над терминологическим словарем). – Л., 1968; Гринев С.В. Введение в терминологию. 2-е изд., перераб. и доп. – М., 1995;

⁶ Mustafayeva S. - Xitoycha – o‘zbekcha tilshunoslik terminlari. Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazi, 2014. B.111; Muhamedova S va mualliflar jamoasi. Bank-moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati. Toshkent:

N.A.Martinova⁸, A.B.Adigeneyeva⁹, D.Kamchibekova, O.S.Ahmedov, P.P.Nishonov¹⁰, X.Paluanova shug‘ullanishgan. Ta’kidlash joizki, jahon va yurtimiz tilshunos olimlari terminologiya va sohaviy terminologiyada leksemalarning lingvistik tahlillarda, lug‘atlar tuzishda ko‘plab yutuqlarga erishganlari rost, shuningdek, AKT terminologiyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar borgan jahon va yurtimiz olimlari ko‘payotgan bo‘lsada¹¹, lekin ushbu sohaning tarkibiga kiruvchi mobil ilovalar terminlari bilan qiziqqan tilshunos olimlarimiz barmoq bilan sanaydigan holatga kelib qolgan. Xususan, Ye.V.Tixonova¹², D.X.Kadirbekova¹³, D.M.Amirova, A.Y.Atadjanova, D.A.Ibragimova¹⁴ tilshunoslar olimlar tomonidan mobil ilova terminlari bo‘yicha qisman tadqiqot olib borilgan va izohli lug‘atlar tuzilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda turli tillardagi AKT terminlari tahlil va tadqiq qilingan bo‘lsa ham, biroq ularning zamonaviy qatlami, xususan, bugungi kun uchun muhim bo‘lgan mobil ilovalarda uchraydigan terminlarning boshqa jihatlari o‘rganilmagan, ya’ni, aynan shu sohaga oid terminlar bo‘yicha lingvistik, strukturaviy, tarjima qilish usullari va leksikografik tamoyillari ingliz – rus – o‘zbek tillari misolida qiyosiy – tipologik jihatdan tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Tadqiqot Navoiy davlat pedagogika institutining “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik va leksikologiya masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining lingvistik xususiyatlarini aniqlash va tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining mavzuvii guruhlarini tasniflash;

Innovatsiya-Ziyo, 2020. B.157; M.Umarxo‘jayev, Q.Nazarov – Nemischa –ruscha – o‘zbekcha frazeologik lug‘at. Toshkent: O‘qituvchi, 1994. B.160

⁷ Kadirbekova D.X. Ingliz va o‘zbek tillarida axborot texnologiyalari terminologiyasining lingvistik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – B.128

⁸ Мартынова Н.А. Роль терминологической лексики в формировании коммуникативной компетенции специалиста // Общество и человек. – 2014, №1 (7). –С. 67-72.

⁹ Адигенеева А.Б., Камчибекова Д. К вопросу о преподавании профессиональных терминов в русском языке. Электрон пецыпс: https://revolution.allbest.ru/pedagogics/00554873_0.html. Murojaat sanasi: 30.08.2021.

¹⁰ Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2009. – B.26

¹¹ Беликова И.А. - Особенности образования терминов неологизмов в подъязыке компьютерной техники: Дис. канд. филол. наук. – Омск, 2004; Орел Т.И. Структура и номинативно-образовательные характеристики английской терминосистемы телекоммуникации. Дис. канд. филол. наук. – М., 2005; Ходакова А.Г - Системная семантика термина на материале англоязычных терминов Интернета. Дис. канд. ... филол. наук. – Белгород, 2010; Мусаходжаев С.И - Лингвостатистический анализ узбекского научно-технического текста и терминологии подъязыка электротехники и электроники. Филол. фан. ... номзод. дисс. иши. – Т., 1986;

¹² Тихонова Е.В. Формирование английской терминологии мобильных средств связи и её лингвистические особенности. Дис. канд. ... филол. наук. – Омск, 2003.

¹³ Kadirbekova. D.X - Inglizcha-o‘zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari – avtoref.diss ... f.f.n – Toshkent, 2017

¹⁴ Amirov D.M, Atadjanov A.Y, Atadjanov D.Y, Ibragimov D.A. va boshqa - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati – Toshkent: BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2010. – B.573

ingliz tilidagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining leksik-semantik xususiyatlari, omonimlik, sinonimik va antonimik munosabatlarini ochib berish;

ingliz tilidagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining genetik xususiyatlarini aniqlash va struktur jihatdan tahlil qilish;

kalka asosida o'zlashgan va sof rus tilidagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining shakliy-struktur tavsiflarini keltirish;

rus va o'zbek tilidagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarini tarjimada berish usullarini aniqlash, modellarini yaratish va ekvivalentlik xususiyatlarini ko'rsatish;

rus va o'zbek tilidagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining orfoepik va orfografik jihatdan tahliliy ochib berish;

tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan izohli lug'atni takomillashtirishga xizmat qiluvchi takliflar berish;

izohli lug'atga kiritish uchun android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlar ro'yxatini shakllantirish;

o'zbek-rus-ingliz tilidagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarning leksikografik tamoyillarini takomillashtirish va bosh so'zi o'zbekcha bo'lgan uch tilli terminologik lug'atini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida *“Google chrome”, “Telegram”, “Yandex.taxi”, “Payme”* mobil ilovalarida berilgan inglizcha, ruscha va o'zbekcha terminlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz, rus va o'zbek tillaridagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining shakllanishi, tuzilishi, leksik-semantik va leksikografik xususiyatlari hamda tarjima qilish usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsifiy, imloviy, qiyosiy-tipologik, komponent tahlil, terminlarning lisoniy tizimdagi o'rnini aniqlashda sistem tahlillardan va lingvostatistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz, rus va o'zbek tillaridagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining semantik guruhlari aniqlangan va guruh tarkibidagi terminlarning leksik-semantik xususiyatlari dalillangan;

ingliz tilidagi mobil ilovalarda qo'llanilgan polufunksional terminlarning ma'nolari orasidagi aloqa leksemalarning yangi semantik ottenkalarining paydo bo'lishi natijasida omonimlik xususiyati shakllanganligi aniqlangan;

ingliz, rus va o'zbek tillaridagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlari paradigmatic strukturasi xususiyatlari ochib berilgan va har uch tildagi terminlarning morfem va semantik derivatsion xususiyatlari asoslangan;

ingliz, rus va o'zbek tillaridagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarning sinonimik va antonimik munosabatlari aniqlangan hamda tillararo integral va differensial semalari izohlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va rus tillari android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminologiyasi asosida o'zbek tilida ayni soha terminlarini uyg'unlashtirish hamda uch tilli terminlar lug'atini tuzishning uslubiy yondashuvi takomillashtirilgan, shu bilan bir qatorda, leksikografik usullardan foydalangan holda tadqiq qilingan barcha android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) o'zbek tilidagi terminlari yagona qolip asosida "etimolog.uz" saytida birlashtirilgan.

yangi andozalarga mos tarjima lug'atlari nuqtai nazaridan mobil ilova terminlari uchun lug'at mikrostrukturasini yaratish tamoyillari ishlab chiqilgan;

android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarning veb-sayt ko'rinishidagi o'zbekcha-ruscha-inglizcha tarjima lug'ati yaratilgan;

android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining derivatsion xususiyatlarini rivojlantirish, qiyosiy terminshunoslik hamda terminografiya tamoyillarini takomillashtirish bo'yicha bir qator amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati olingan natijalarning android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining tildagi o'rnini ko'rsatib bergani, qiyosiy terminologiya, leksikologiya, tarjimashunoslik sohalarining tadqiqot ko'lamini boyitgani hamda boshqa terminologik tizimlarning lingvistik xususiyatlarini yoritishda manba bo'lib xizmat qilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalarning mobil ilovalar yaratilish sohasida terminshunoslik va lug'atshunoslik hamda xalqaro ma'lumot almashinuvi tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qilgani, oliy o'quv yurtlarida lug'atlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratish, turli metodik tavsiyanomalar tuzish hamda AKT sohasi uchun mutaxassislar tayyorlashda ahamiyatliligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Android operatsion tizimi mobil ilovalari terminlarining o'zbek, rus, ingliz tillarida berilishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

Android operatsion tizimi mobil ilovalari terminlarining o'zbek tilida berilishi va leksikografik talqini bobidagi mikrostrukturasida keltirilgan terminlarning leksikografik tavsifi, shuningdek, mobil ilova terminlarining ingliz, rus va o'zbek tillarida berilishining tahlili jarayonida mobil ilovalardagi har bir oynada foydalanilgan terminlarni mavzuviy tarzda ajratib olish ya'ni kirish, bosh(asosiy), kaskad menyusi oynasi, ichki (sozlamalar) menyusidagi terminlarni ajratish bo'yicha xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universiteti tomonidan 2021-2023-yillarga mo'ljallangan № IL – 402104474 “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” bo'yicha innovatsion loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 21-dekabrda 01/4-3526 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada, “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasida qo'llanilishi kerak bo'lgan terminlarni yagona qolipga keltirilishiga erishilgan.

Android operatsion tizimi mobil ilovalari terminlarining ingliz tilida berilishi bobidagi mobil ilovalar va elektron platformalar ma'lum bir dasturlash tillari (“java”, “python”, “php”) orqali yoziladigan bo'lib, ulardagi terminlar asosan ingliz tilida yozilgan hisoblanishi, mobil ilova va elektron platformalarning asosiy tili ingliz tili bo'lib, undagi terminlar, rus va o'zbek tillariga tarjima qilinib, foydalanuvchilarga yetkazilishi, har bir mobil ilova yoki elektron platformalar “kirish (asosiy/ilovani atovchi), bosh (foydalanuvchi interfeysidagi)”, “ichki va kaskad (dasturiy vosita) menyular”dan iborat ekanligi bo'yicha xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan 2020-2022 yillarga mo'ljallangan № PZ-2020042022 “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi”ni yaratish bo'yicha amaliy loyihada foydalanilgan. Natijada, “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasining o'zbek tilidagi talqinining kaskad menyusidagi terminlarini yaratishda asosiy qo'llanmalardan biri bo'lishiga erishilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 27-dekabrda 01/4-3655 – sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot ishidagi muammolar va uning yechimini yanada kengroq yoyish hamda mobil ilovalardagi o'zbek tilida berilgan terminlarning kundalik sharoitda foydalanish bo'yicha fikr va tasviyalardan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom, yangi kun”, “Til – millat ko'zgusi”, “Dolzarb mavzu” kabi ko'rsatuv va radioeshittirishlarida foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 30-noyabrda 01-10/179 – ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvlardagi eshittirishlar orqali **“Google chrome”, “Telegram”, “Yandex.taxi”, “Payme”** kabi mobil ilovalarda foydalanilgan terminlarning etimologiyasi, qo'llanilishi jihatdan ma'lumot berilganligi va mobil ilovalardagi aksariyat terminlar takroriy ekanligi hamda mobil ilovalardagi terminlarning o'zbek tilidagisidan foydalanish biroz qiyinchiliklar yuzaga keltirayotganligini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya natijalari yuzasidan 6 ta respublika va xalqaro hamda 2 ta xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 16 ta ilmiy maqola va tezis chop etilgan. O'zbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan, 3 ta xorijiy jurnallarda ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 169 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilidagi android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining semantik, genetik va struktur xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida termin va terminologiyaga doir xorijiy tilshunos olimlarning fikr-mulohazalar, mobil ilovalarda qo'llanilgan ingliz tilidagi mobil ilovalarning terminologiyasi masalalariga doir nazariy mulohazalar ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, ushbu bobda android operatsion tizimi mobil ilovalari terminlarining mavzuviy guruhlarining tasnifi keltirilgan, ularning semantikasi, genetik xususiyatlari hamda terminlarning tuzilishi tahlil qilingan.

Terminologiya atamasi bu – tilshunoslikning ma'lum bir sohasiga oid maxsus so'zlar va ma'nolar guruhini o'rganuvchi bo'lim hisoblanib, bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminlar vujudga keladi.

Mavjud so'zlarning yangi ma'nolari paydo bo'lishi so'z boyligi o'sishining yana bir foydali manbasi hisoblanadi. Semantik kengaytmalar so'z boyligining sifat jihatdan o'sishini namoyon qilib beradi.

Hozirgi kunda ingliz tilida so'zlarning ma'nosini belgilash yoki ko'p ma'noli so'zlarni farqlash uchun bugungi kungacha tayanch manba vazifasini o'taydigan ko'plab inglizcha izohli lug'atlar mavjud. Xususan, 1828-yildan beri nashr qilinib kelayotgan “Merriam-webster” elektron lug'ati, “Oxford ingliz izohli lug'ati”, “Collins ingliz izohli lug'ati”, “Cambridge ingliz izohli lug'ati”, “Macmillan” nashriyotida chiqadigan ingliz lug'atlari eng ishonchli manbalar sirasiga kiradi.

Palmer o'zining “Semantika – yangi tavsif” kitobida semantika atamasini tilshunoslikda qanday qo'llanilishi bo'yicha ma'lumot bergan. Unda fonetika va grammatikaga o'xshab semantika ham tilshunoslikning komponenti sifatida keltirgan. Bundan tashqari, deyarli barcha tilshunos olimlar semantikani tugash qismida, fonetikani boshqa hamda grammatikani o'rta qismida deb baholaydigan lingvistik modelni qabul qilishgan. Shu bilan bir qatorda ushbu kitobda tilni biri-biri bilan turli belgilar va ramzlar orqali aloqa qiladigan muloqot tizimi sifatida ham keltirilgan¹⁵.

So'zlarning genetik xususiyati deganda ularning kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasi tushuniladi. **Etimologiya** 1) so'z va morfemalarning kelib chiqishini

¹⁵ Palmer F.R. - Semantika – yangi qo'llanma (a new outline). 1971. – B. 2-6.

o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi; 2) so'zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmui; 3) so'zning kelib chiqishi. XX asr tilshunosligida "Etimologiya" termini "grammatika" ma'nosida ham qo'llangan.¹⁶

Bugungi kunda barcha tillar izchil rivojlanib bormoqda hamda lug'at boyligi ko'paymoqda. Shu qatorda ingliz tilini misol qilib olsak, garchi foydalanilayotgan ko'p so'zlar anchadan beri tilimizning ma'lum bir qismiga aylanib qolgan bo'lishiga qaramasdan, yangi so'zlar bu tilga doimiy qo'shilib kelmoqda.

Ingliz tilida tilning tuzilishini o'rganishning turli xil usullari mavjud. Masalan: so'zlarning qismlari orqali, so'zlarning ma'nosi orqali, kichkina ma'noli birlikdan so'zlarning shakllanishi orqali, so'zlarning tovushlari orqali, so'zlarning tuzilishi orqali, so'zlarning etimologiyasi orqali, leksik-semantikasi orqali, so'zlarning qo'llanilishi orqali, so'zlarning leksik xususiyatlari orqali.

Tadqiqot jarayonida "Google chrome", "Payme", "Telegram", "Yandex.taxi" mobil ilovalarda qo'llanilgan terminlar mavzuviy guruhlariga ajradildi: *"kirish qismi menyusidagi"*, *"bosh menyu (foydalanuvchi interfeysidagi)dagi"*, *"kaskad menyudagi"*, *"ichki sozlamalar menyusidagi"* terminlar.

Yuqorida nomlari keltirilgan mobil ilovalar terminlarning semantikasi, tuzilishi va genetik xususiyatlari tahlil qiladigan bo'lsak:

"Telegram" - ushbu atamadagi *"tel"* qo'shimchasi, so'z hosil qiluvchi element sifatida olingan bo'lib, xuddi *"television"* so'ziga o'xshab, grek tilidan olingan olingan bo'lib, *"uzoq masofa"* ma'nosini beradi, genetik jihatdan grek tilidagi *"teleos"* so'zidan olingan. *"Gram"* qo'shimchasi esa ot yasovchi qo'shimcha hisoblanib, grek tilidagi *"gramma"* ya'ni *"harf"*, *"yozma harf"* anglatuvchi so'zdan olingan bo'lib, ikkalasi qo'shilganda *"telegram"* so'zi yasalgan. Ushbu atama 1850-yillar, aniqrog'i, Albaniyadagi *"Tungi jurnal"*, 6-aprel, 1852-yildagi sonida dastlab foydalanilgan.¹⁷

"Telegram" mobil ilova sifatida 2013-yilda kirib keladi. Uning asoschilari rossiyalik dasturchi Pavel Durov va akasi Nikolay Durovlardir. Bugungi kunga kelib "Telegram" mobil ilovasi IOS, Android, Windows Phone, Win, Mac OS va Linux kabi operatsion tizimlarda ishlamoqda. Bundan ko'rinib turibdiki ushbu atama atoliq ot tarzida tilshunoslikka kirib keldi degan xulosaga kelsak mubolag'a bo'lmaydi.

"Google chrome" – ikki komponentli atama bo'lib, **"google"** – atamasiga ta'rif beriladigan bo'lsa, ushbu atama 1999-yildan boshlab foydalanildi. "Google.com" domeni 1997-yilda ro'yxatdan o'tgan bo'lib, mashhur kompaniya ham aynan shu nomdan olingan. Kompaniyaning ma'lumot berishicha, bu *"google"* nomi *"googol"* atamasi bilan chalkashlik hosil qilgan, maqsadi millionlab ma'lumotlarni bitta to'rga jamlaydigan qidiruv tizimini yaratish bo'lgan Lari Peyj va Sergey Blinning g'oyalariga katta ta'sir ko'rsatgan. "Merriam-webster" ingliz izohli lug'atida *"Googol"* – uzun ya'ni cheksiz son sifatida tushuniladi ya'ni 10100 tarzida. **"Chrome"** - atamasi fransuz tilidan olingan bo'lib, ushbu nom Fourkroy va Haviy tomonidan yangi element sifatida olib

¹⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Etimologiya>

¹⁷ https://www.etymonline.com/word/telegram#etymonline_v_7690

kirilgan, lekin dastlab ushbu atama grek tilidan boshqacha atalgan “*khroma*” yoki “*chromium*” tarzida keyinchalik metall tarzida fransuz kimyogari 1798-yilda Luiz Nikolas Vakvilini “*chrome*” tarzida nom beradi. “Google shrome” mobil ilovasining belgisi ham xrom elementiga o‘xshab ishlab chiqilgan.

“**Yandex.taxi**” – “yandex” atamasi ham “google chrome” ga o‘xshab, Rossiya dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan qidiruv tizimi hisoblanadi. Bu tizim tarmoqlangan bo‘lib, tur xil ma’lumotlarni izlashda yordam beradi, xususan, taksi haydovchilari haqidagilarni ham. “Yandex” atamasining birinchi kelib chiqishi, Arkadiy Voloz va Borovskiye ga borib taqaladi. Ular “Arkadiya” deb nomlangan kichik kompaniyada qidiruv texnologiyalari ustida ishlashardi. 1993-yilda ularning bu tizimi rivojlangandan keyin nomni o‘zgartirishga kelishib olishadi. Ingliz tilidagi “*search*” va “*index*” (ikkala so‘z ham qidirmoq ma’nosini beradi) atamalari ular uchun muqobil shakl hisoblanadi va ikkalasi orasidan “*index*” atamasi tanlanadi. “Yet Another Indexer” so‘zining qisqartmasi “Yandex”ni o‘ylab topishadi. Shundan so‘ng, Voloz dastur logotipidagi so‘zning birinchi ikkita inglizcha harflarini ruscha harflar bilan Я (“Ya” – ingliz tilida “I” – “Men” ma’nosini anglatadi) ga o‘zgartiradi, shu bilan ushbu atama ikki tilliga aylanadi. “Yandex” kompaniya sifatida 2000-yilda faoliyatini boshlaydi.

“**Taxi**” – atamasi “taximeter cab” so‘zining qisqartmasi bo‘lib, 1907-yilning mart oyida Londonda foydalanilgan.

“**Payme**”– mobil ilovasi 2013-yilda o‘zbek dasturchilari tomonidan yaratilgan bo‘lib, barcha turdagi to‘lov va o‘tkazmalar uchun foydalaniladigan xizmat turi hisoblanadi. “Pay” – atamasi 1200-yilda eski fransuz tili “*paier*” so‘zidan olingan. “Me”- olmosh sanalib, eski ingliz tilidan olingan. Ingliz tilida “I” - kishilik olmoshining to‘ldiruvchi vazifasini bajaruvchi turi sifatida qo‘llaniladi.

Ingliz tili leksikoni sodda va murakkab birikmalarni tahlil qilish orqali o‘rganildi. Mobil ilovalarda qo‘llanilgan terminlarning 836 ta atamadan 642 tasi birikmali terminlar bo‘lib, umumiy terminlar sonining 76 foizini tashkil qilishi aniqlandi. Bundan tashqari, 121 ta termin barcha mobil ilovalarda bir shaklda qo‘llanilgan, sababi bunday terminlar bir xil funksiyalarni bajaradi.

Tadqiqot ishi davomida “Telegram” mobil ilovasining 246 ta, “Google chrome” mobil ilovasining 295 ta, “Yandex.taxi” mobil ilovasining 125 ta hamda “Payme” mobil ilovasining 170 ta atamalari ilovaga kiritilgan bo‘lsa, ular orasidan asosiy foydalanuvchi uchun tanish bo‘lgan 26 ta atamalar semantik jihatdan tahlil qilindi.

Shunga ko‘ra, jami 836 ta atamadan 124 ta atamalar omonimlik xususiyatiga ega, 28 ta atama ko‘p ma’nodlilik xususiyatiga ega, deyarli barcha atamalarning esa sinonimlik xususiyati mavjud.

Mobil ilovalardagi terminlar orasida bir komponentli leksemalar ham uchraydi. Ular tarkibidagi yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarini o‘rganish jarayonida shuni aytish mumkinki, ingliz tilida leksemalarga yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali boshqa tillardan ularni o‘zlashtirish o‘ta kuchli takomillashgan. Ulardagi affiksatsiya hodisasi boshqa tillarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan.

Dissertatsiyaning “**Android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining rus tilida berilishi**” deb nomlangan bobida rus tiliga aynan o‘zlashgan, kalka asosida o‘zlashgan va sof ruscha mobil ilovalarda foydalanilgan terminlarning imlosi, talaffuzi hamda tuzilishi o‘rganilgan.

Ma’lumki, rus tilida boshqa tillardan so‘zlarning o‘zlashishi “*заимствование*” deb ataladi. Zamonaviy rus tili leksikasi ikkita katta guruhlariga ajraladi: dastlabki ya’ni sof rus leksikasi va boshqa tillardan olingan ya’ni o‘zlashgan ruscha so‘zlardir. Dastlabki rus leksikasi – bu hind-yevropa tillaridan, umumslavyan tillaridan, sharqiy slavyan hamda rus tilida foydalaniladigan leksikalar tushuniladi. Aynan yuqoridagilardan tarkib topgan leksikalar rus tilining milliy asosini tashkil qiladi. Boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar esa olingan so‘zlar deb ataladi. Rus tilida boshqa so‘zlarning leksikonlarning o‘zlashishi butun davr mobaynida amalga oshib kelgan bo‘lib, rivojlanish jarayonida rus tili turkiy tillar bilan, ayniqsa Usmonli imperiyasi bilan, niderlandlar bilan aloqa vositasida fransuz, nemis va ingliz tillari bilan boyib keldi.

Mashhur olim I.Ogiyenkonning ta’kidlashicha, rus tili tarixining birinchi qismi qadimgi davrlarga borib turk, grek va lotin tillariga borib taqalishini o‘rgangan. Keyingi, rus tili tarixining ikkinchi qism esa, zamonaviy davrga ya’ni nemis, fransuz, ingliz, polyak va boshqa tillarga taqalishi bo‘yicha ma’lumot berib o‘tgan¹⁸.

Olim S.Sireskinaning olingan so‘zlar bo‘yicha maqolasiga ko‘ra, so‘zlarning rus tiliga o‘zlashishi 3 xil usulda amalga oshishi ta’kidlangan: 1) aralash; 2) transkripsiya; 3) transliteratsiya.

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, atamalarning boshqa tillardan turli xil usullarda tilga o‘zlashishi haqida bir qancha ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Bundan tashqari ingliz tilidan rus tiliga kirib kelgan so‘zlarning imlosi va talaffuziga ham e’tibor qaratishimiz kerak, sababi ingliz tilidan aynan o‘zlashgan so‘zlarning rus tilida talaffuzi bir xil qolishi, lekin ularning matnda yozilishi turli shaklda kelishi mumkin.

Y.K.Grot o‘zining rus imlosidagi asosiy muammolarida olingan so‘zlarning orfografiyasiga oid ko‘plab savollarni ochiq qoldirishga majbur bo‘ladi. Grot uchun imlodagi hayron qolarli jihat bu chetdan kirib kelgan so‘zlardagi undoshlarning ikkilanishi edi va bu undoshlarning rus tilida hech qanday ekvivalenti mavjud emas. Jumladan, [jo], [ja], [je] birikmalari rus imlosida «э» tarzida qo‘llaniladi.

Keyingi XX asrning 2-yarmida olingan so‘zlarning imlosini o‘rganish yangi bosqichga kirdi. Olingan so‘zlar imlosi bo‘yicha tez-tez beriladigan savollar turli qarashlarga ega bo‘lib, uning yechimi aniq beriladigan matnlardagi imlo qoidalarida beriladi. Masalan, L.Maksimovning “э” va “е” harflarining olingan so‘zlardagi unilardan so‘ng ishlatilishi bo‘yicha maqolasi bunga yorqin misol bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, N.Yeskovoy va Y.Shubovanning “э” harfining undoshlardan keyin ishlatilishi, M.Glovinskiy va L.Kalakulskoyning ikkilangan

¹⁸ Огиенко И.И., Иноземные элементы в русском языке: история проникновения заимствованных слов в русский язык - 2010. – С.136.

undoshlarning ishlatilishi kabi maqolalar yuqoridagi berilgan muammoning yechimi bo‘la oladi.¹⁹

Olingan so‘z va kalka asosida o‘zlashgan so‘zlarning imlosi bo‘yicha o‘rganilgan barcha maqolalar va ilmiy ishlarda yagona muammo ilgari surilgan. Ayrim unlilarning rus tili imlo qoidalarida hech qanday almashtiradigan tovushlari mavjud emasligi, olingan so‘zlardagi imlo va talaffuz bir- biridan farq qilishi keltirilgan.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, dasturiy mahsulotlarning yaratilishi oqibatida boshqa tillarda bo‘lgani kabi rus tiliga yangi so‘zlar kirib kela boshladi. Xususan, *google* – atamasi ham xuddi shunday so‘zlar sirasiga kiradi. Eng qizig‘i, bu atamaning imlosi va talaffuzi haqida so‘z boradigan bo‘lsa, ingliz tilida talaffuz va imlo turlicha bo‘ladi. Ingliz tilida so‘zlarning transkripsiyasi bu ularning imlosini ifodalamaydi balki to‘g‘ri talaffuz qilish uchun bir vosita hisoblanadi. “Cambridge dictionary” elektron izohli lug‘atida “Google” [gu:gl] tarzida o‘qilishi berilgan, garchi ushbu so‘z 6 harfdan iborat bo‘lsa-da, lekin talaffuzda 4 ta tovush orqali ifodalanadi, shunda ikkita bir xil harf bitta cho‘ziq tovushni ifodalab kelmoqda. Rus imlosida ushbu atama «гугл» tarzida izohli lug‘atlarga kiritilgan.

“**Telegram**” atamasini o‘zini oladigan bo‘lsak, garchi ushbu ilova rus dasturchisi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ushbu atamaning kelib chiqishi sof rus tilidan olinmagan, shu sababli ham bu so‘zni aynan olingan so‘zlar qatoriga qo‘shishimiz mumkin. Imlo va talaffuzi haqida so‘z boradigan bo‘lsa, keltirilgan so‘z 8 ta harfdan iborat va talaffuzda ham xuddi shuncha tovush mavjud. 3 ta unli va 5 ta undosh tovush ishtirok etgan. Unli tovushlar asl holicha emas, balki ruscha yuqorida keltirilganidek talaffuzi ikki tovushni berayotgan “e” harfi [э] tarzida talaffuz qilinadi.

“**Яндекс такси**” (“yandex taxi”) – ushbu atamaning birinchi “яндекс” so‘zida 6 ta harf va 7 ta tovush mavjud, so‘z boshi va oxirida “я” bitta harf bo‘lsa-da ikkita tovushni anglatadi. “*Такси*” so‘zida esa imloda qancha harf bo‘lsa, shuncha tovush mavjud va hech qanday tovush o‘zgarishi, tushishi ro‘y bermaydi.

“**Payme**” atamasining imlo va talaffuziga to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur atama qo‘shma so‘z bo‘lib, *pay* va *me* atamalaridan olingan. “Cambridge dictionary” onlayn lug‘atida [peimi:] tarzida talaffuz qilinadi. Rus imlosida ham talaffuzida ham xuddi ingliz tilidagiga o‘xshib bir xil bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot ishining rus tiliga kalka asosida o‘zlashgan android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining strukturasi va imlosi bo‘limidagi kalka jarayoni hamda jarayon haqidagi olimlar fikri haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Tadqiqot ishida o‘rganilayotgan mavzu mobil ilova terminlaridir. “Yandex.taxi”, “Payme”, “Google chrome”, “Telegram” mobil ilovalarida uchraydigan kalkalangan terminlar tahlili, ya’ni ularning tuzilishi va imlosi ko‘rib chiqilishi muhim jihat hisoblanadi.

Terminlarning strukturasi bilan bog‘liq tushunchani T.Volinetsning o‘quv qo‘llanmasida uchratishimiz mumkin. Xususan, morfologik usulda atamalarning

¹⁹ Нечаева И.В - Актуальные проблемы орфографии иноязычных заимствований. –Издательский центр «Азбуковник», Москва. – С.21-23

yasalishinig o'zi bir necha turlarga bo'lingan va shu orqali atamalarning tuzilishi kelib chiqadi. Ular:

1. Suffiksli;
2. Prefiksli;
3. Postfiksli;
4. Kombinatsion;
5. Murakkab;
6. Univerbatsiya²⁰.

Tilshunos olimlar bir to'xtamga kelib olgandan so'ng kalka jarayoni turlarga ajratila boshlandi. E.Forian o'zining maqolasida Y.Obarani qarashlarini asos qilgan, kalkalashning asosiy tur va guruhlariga ajratgan holda tahlil qildi:

- 1) leksik kalka; 2) frazeologik kalka; 3) grammatik kalka.

“**Telegram**” mobil ilovasidagi kalka asosida tarjima qilingan foydalanuvchi interfeysidagi terminlardan biri bu “**Защищенный контент**” – yarim kalka asosida tarjima qilingan ikki komponentli birikma hisoblanadi. Bu holatda kontent chetdan o'zlashgan atama “**защищенный**” atamasining asosi esa sof ruscha sanaladi.

“**Добавить аккаунт**” – “**add account**” yarim kalkali termin bo'lib, ikki komponentli birikma hisoblanadi va bir atama ikkinchi atamaga tobelanib kelish xususiyatini saqlab qolgan va ular ajratib yoziladigan birikmalardir.

“**Telegram**” mobil ilovasining kaskad menyusida uchraydigan birikma terminlar orasida “**new group**” – “**создать группу**”, “**new channel**” – “**создать канал**”, “**people nearby**” – “**люди рядом**” kabi birikmalar ham ikki komponentli birikma hisoblanadi. Bular orasida ko'p komponentli birikma ham mavjud, masalan, “**new secret chat**” – “**создать секретный чат**” uch komponentli birikma bo'lib, frazeologik kalka turiga mansubligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Sof ruscha so'zlar quyidagi bosqichlarni bosib o'tgan - bular hind-yevropa, umumslavyan, sharqiy slavyan va asl ruscha so'zlardan tashkil topgan hamda aynan shu tillarga yaqin bo'lganligi sababli qarindosh sanaladi.

Terminlarning sof rus tilida ekanligini bilish uchun <https://lexicography.online> veb-saytida jamlangan G.A.Krilov, A.V.Semyonov, L.V.Uspenskiy, Maks Fasmer, N.M.Shanskiy tilshunoslarning onlayn rus tili etimologik lug'atidan, shu bilan birga, ushbu veb-saytdagi V.I.Dalya, T.F.Yefremov, S.I.Ojegov, D.N.Ushakov kabi tilshunos olimlarining rus tili onlayn izohli lug'atlaridan keng foydalanilgan.

Shuni qo'shimcha qilib o'tish kerakki, dasturlar ingliz tilida yaratilishi va aksariyat terminlar ingliz tilidan tarjima qilinganligi hamda sof ruscha kam uchraganligi sababli, terminlar mobil ilovalardagi menyuga qarab tahlil qilinmasdan, balki har bir menyulardagi sof ruscha terminlar tanlash asosida alohida o'rganildi.

“**Telegram**” mobil ilovasidagi dastlabki sof rus tilidagi termin bu – “**ночной**” bo'lib, aslida bu shaklda yasama so'z bo'lib, “**ночь**” – so'zning asosi hisoblanadi, -**ой** –sifat yasovchi qo'shimcha. So'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida

²⁰ Волюнец Т. – Современный русский язык // способы словообразования УСП // Минск, 2003, С.5-10

soʻz tarkibida tovush tushishi hodisasi roʻy bermoqda. Ushbu atama “ночь” shaklida turli maʼnolarga ega va agar ushbu soʻz kunning bir qismi, yaʼni “kun botganidan keyingi vaqt maʼnosida” kelsa, sof ruscha soʻz, lekin bu atama “bir kecha” maʼnosida kelsa, boshqa tildan oʻzlashgan hisoblanadi. Demak, ikki maʼnoda ham sof ruscha ham boshqa tildan oʻzlashgan boʻlishi mumkin ekan, shu holatdan gapda foydalanishda ehtiyotkorlik zarur.

“Секретный” – ushbu atama uch komponentli birikma tarkibida foydalanilgan boʻlsa-da, yakka holda tahlil qilinadiganda bu atamani sodda yasama soʻz, asosi fransuz tilidan oʻzlashgan soʻz hisoblansa-da, lekin ruscha qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida sof rus tiliga oʻzlashganligini koʻrishimiz mumkin.

“Недавно” – bu atamaning asosi **“давно”** boʻlib, umumslavyan tiliga mansub. Old (prefiks) qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida yasalgan sodda yasama soʻz. Lugʻatlarda ravish soʻz turkumiga oidligi hamda **“yaqinda”** maʼnolarida kelishi berilgan.

Rus tiliga aynan va kalka asosida oʻzlashtirilgan hamda sof ruscha leksemalarni talaffuz qilishda, soʻzlarni moslashtirish uchun tovushlarning nutqdagi kombinator oʻzgarishlari (akkomodatsiya, assimilyatsiya, epenteza va boshqalar) ham kuzatildi. Bunday hodisalar rus tilidatabiiy holat sanaladi. “o” harfini “a” tarzida, “z” harfini “e” tarzida talaffuz qilish hodisalari koʻplab uchraydi.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi rus tilining ingliz tilidan ham koʻra boy til ekanligini koʻrsatib berdi, sababi mobil ilovalarda qoʻllanilgan inglizcha terminlar rus tiliga tarjima qilinganda, sof rus tilidagi leksemalardan dasturlarda muqobil tarzida qoʻllanilishi rus tili uchun katta yutuq sanaladi. Sof ruscha leksemalarni (исконное русское слова) izlab topish umuman qiyinchilik tugʻdirmadi. Rus tiliga oid eski manbalar ham elektron shaklga keltirilib, yakka platformaga joylashtirilgan. Aynan shu manbalardan foydalangan holda terminlarning sof ruscha yoki chetdan oʻzlashganligi tahlil qilindi. Eʼtibor tortadigan jihati shuki, tilshunos olimlar turli fikrlarni bildirib oʻtishgan, ayrimlari sof ruscha soʻzlarni 80-90 foiz deb maʼlumot bersa, ayrimlari 70 foiz tarzida maʼlumot chiqargani tadqiqot davomida biroz chalkashliklarga olib keldi.

Sof ruscha terminlarning struktura va qoʻllanilishi jihatdan tahlil qilinganda bir qator tilshunos olimlarning fikri orqali berilgan sof ruscha leksemalar va rus tiliga oʻzlashtirish boʻyicha berilgan qoidalarga asoslangan holda terminlar tanlandi hamda tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning **“Android operatsion tizimi mobil ilovalari (AOTMI) terminlarining oʻzbek tilida berilishi va leksikografik talqini” deb nomlangan uchinchi bobida** oʻzbek tiliga aynan oʻzlashtirilgan AOTMI terminlarining imlosi va talaffuzi, tilimizga tarjima qilingan AOTMI terminlarining qoʻllanishi hamda ularning yaroqliligi(validligi) boʻyicha tahlillar olib borilgan, shuningdek, mobil ilovalar terminlarining leksikografik talqini masalalari ham tadqiq etilgan.

Ushbu bobda mobil ilovalarda uchraydigan oʻzlashgan va tarjima qilingan terminlarning qoʻllanilishi hamda validligi alohida oʻrganiladi. Bobdagi terminlar

o'zbek tilshunos olimlari R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasi, B.Mengliyevning tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek tili" darslik va til korpuslarini yaratish bo'yicha maqolalari, M.Umarxo'jayevning "Umumiy tilshunoslik" nomli o'quv qo'llanmalari, M.Umarxo'jayev rahbarligida Andijon davlat chet tillari institutida tashkil etilgan "ALTAIIM" lug'atshunoslik va tarjimashunoslik ilmiy markazida ham bugungi kunda maktab o'quvchilari uchun fanlar kesimida uchraydigan terminlarning tarjimalari berilgan ko'p tilli onlayn, mobil ilovalarga mos tushadigan lug'atlar yordamida tahlil qilindi.

Eng boshidan 4 ta tanlangan mobil ilovalar ("Payme", "Telegram", "Google chrome", "Yandex.taxi") terminlarining ingliz va rus tilida berilishi tahlil qilingan bo'lsa, ushbu bobda atamalarning o'zbek tilida ifodalanishi bo'yicha tahlil olib borilgan.

Boshqa tildan leksemalarning aynan olinishini o'zbek tilining leksik boyish manbalarining usullaridan biriga kirgazsak bo'ladi. Leksemalarni aynan olish usuli bu tojik, arab, rus va Yevropa tillaridan ko'proq o'zlashtirilgan. Bugungi kunga kelib o'zbek tiliga ingliz tilidan so'zlarning kirib kelishi ham to'g'ridan-to'g'ri bo'lmoqda. Ingliz tiliga taqlid, turli mahsulotlarga ingliz tilidagi nomlarning qo'yilishi tilning o'zbek tili bilan qo'shib ketishiga yoki ushbu tildan yangi leksemalarning kirib kelishiga asos bo'lmoqda. Xususan, tadqiqot ishida o'rganilayotgan mobil ilovalarning nomlanishi ("Yandex.taxi", "Telegram", "Payme", "Google chrome") bunga yaqqol misol bo'la oladi va bunday leksemalarning nomlarini biz o'zgartirolmaymiz hamda o'rniga boshqa muqobil topolmaymiz.

"Yandex.taxi", "Telegram", "Payme", "Google chrome" mobil ilovalarining o'zbek tilida berilgan terminlarini tahlil qilarkanmiz, dasturlarda aynan o'zlashgan terminlardan foydalanilganligiga duch kelishimiz mumkin. Eng avvalo, terminlarni tahlil qilishdan oldin so'zlarning etimologik kelib chiqishiga ham nazar tashlash kerak, chunki imlosi va talaffuzi bo'yicha tahlil qilinayotgan termin o'z qatlamga taalluqli qarindoshlar tillarda foydalanilishi ham mumkin. Shu o'rinda, foydali manba sifatida Sh.Rahmatullayevning 3 jildlik "O'zbek tilining etimologik lug'ati"ni tanlash mumkin.

Ushbu to'rtta mobil ilovada qo'llanilgan terminlarni birma-bir tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo mobil ilova nomlari bo'yicha tahlil olib borsak maqsadga muvofiq. Yuqori boblarda "Yandex.taxi", "Telegram", "Payme", "Google chrome" terminlarining ingliz va rus tillarida genetik hamda semantik xususiyatlari o'rganildi, endi ularning o'zbek tilidagi talaffuzi va imlosi haqida qisqacha so'z yuritiladi.

"Payme" aslida bu atama so'z birikmasi shaklida buyruq ohangida tarjima qilinishi kerak, "menga to'la" tarzida, lekin dasturchilar bu atamani bitta butun nom bilan atab, to'lov xizmati amalga oshiriladigan mobil ilova yaratishdi, natijada tilimizga bu nom shundayligicha kirib keldi va ushbu birikmaga muqobil termin topilmadi. Ushbu atamaning imlosi haqida so'z borganda, u ingliz tilidagi so'zlar

qo'shilmasidan hosil bo'lgan va uning ingliz tilidagi talaffuz transkripsiyasi [pemi:] tarzida berilgan hamda ikkinchi bo'g'in "me" yozilgan qism cho'ziq holda o'qilishi kerak, lekin o'zbek tilida cho'ziqlik belgisi hamda diftong tovushlar bo'lmaganligi sababli [peymi] tarzida talaffuz qilinishi mumkin. O'zbek tilida ushbu atama imloda asl holicha qoladi sababi bu dasturga qo'yilgan nom hisoblanadi. Bu holatda o'zbek tilida uchraydigan "**pay**" so'zi bilan hech qanday omonimlik hosil qilmaydi hamda genetik xususiyati bir xil emas.

